

O'quv media markazi direktori

## Joldasov Shaxislam Batirovich

**Qabul vaqti:** Dushanba- Juma(14:00-16:00)

**Telefon:** (71) 238 - 65-48

**E-mail:** [joldasov@tuit.uz](mailto:joldasov@tuit.uz)

### **O'quv media markazi to'g'risida haqida ma'lumot**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti O'quv media markazi O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya Hukumatlari o'rtasida imzolangan Anglashuv Memorandumi asosida tashkil etilgan.

Markazning maqsadi: Universitetda ta'lim jarayonini bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan integratsiyalashuvda faol ishtirok etgan holda vatanimizdagi televizion va media mahsulotlar bozorini rivojlantirish, ta'limga yo'naltirilgan o'quv media mahsulotlari yaratgan holda daromad olish, televizion texnologiyalari sohasida jaxon darajasidagi yetuk mutaxassislarni tayyorlash orqali malakali hodimlar zaxirasini yaratish va ish o'rinlarini kengaytirish.

Markazning vazifalari: Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini ta'lim jarayoniga joriy etish; ta'lim tizimida eng so'nggi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash; shuningdek, talabalarga nazariy bilimlar berish bilan birga ularda amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirish; ta'lim jarayonini ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyalashuvda faol ishtirok etish; media ishlab chiqarish sohasida malaka oshirish kurslarini hamda qisqa muddatli ixtisoslik kurslari ko'rinishidagi treninglarni tashkil etish; O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus va umumta'lim muassasalari rahbar hodimlari va professor-o'qituvchilarining media kompetentligini oshirishga qaratilgan o'qitish faoliyatini olib borish; media va televizion ishlab chiqarish texnologiyalarini chuqur o'rganishga o'z istagini bildirgan universitet, uning filiallari va unga qarashli o'rta-maxsus kasb hunar ta'limi muassasalari hodimlari va talabalarini tanlov asosida o'qitish; masofaviy ta'lim uchun turli ko'rinishdagi interaktiv, media o'quv manbaalari, videodarslarni yaratish.

O'quv media markazida jami 48 nafar tinglovchiga mo'ljallangan 2 o'quv auditoriyasi, jami 52 nafar tinglovchiga mo'ljallangan televizion studiya, kichik pavilyon, rejissyorlik pulbt xonasi, o'quv montaj laboratoriyasi, professional montaj studiyasi, ovoz yozish studiyasi, fotostudiya, virtual televizion studiyasi kabi o'quv laboratoriya xonalari bilan ta'minlangan va 24 kishilik filmlar ko'rigi xonasi mavjud. O'quv laboratoriyalari va o'quv-ma'ruza xonalarining umumiy maydoni 584.2 kv.m.ni tashkil etadi.

### **O'quv media markazining qisqacha tarixi:**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti O'quv media markazi garchand 2019 yilning 29 oktyabr kuni ochilgan bo'lsada, uning tarixi 2013 yilga borib taqaladi. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2013 yil 26 martdagi PQ1942-son "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra universitetning moddiy texnik bazasini takomillashtirish, o'quv laboratoriyalarini zaruriy uskuna va jihozlar bilan ta'minlash va eng asosiysi, ta'lim jarayonini ishlab chiqarish bilan to'liq integratsiyalashuviga erishish masalasi universitet oldidagi asosiy vazifaga aylandi.

Universitetning "Televizion texnologiyalar" fakul'teti, "Telestudiya tizimlari va ilovalari" kafedrasini mudiri B.J.Bazarbaev, katta o'qituvchilar Sh.T.Xusanov va A.Mamadaliyevlar tashabbusi bilan fakul'tet ta'lim yo'nalishlari talabalarining bilim va malakalarini oshirish maqsadida fakul'tet qoshida televizion ishlab chiqarish texnologiyalariga asoslangan O'quv media markazi tashkil etish uchun loyiha tayyorlandi. Loyiha Yaponiyaning JICA - Yaponiya halqaro hamkorlik Agentligiga topshirildi. Yaponiya tomoni ushbu loyihani tasdiqlab 2015 yilda loyihani amalga oshirish uchun 1,6 million AQSh dollari miqdorida grant mablag'larini ajratishini ma'lum qildi.

2017 yilga kelib loyihani amalga oshirish ishlari o'zining avj nuqtasiga yetdi. Shu yili O'zbekiston va

Yaponiya hukumatlari o'rtasida loyihani amalga oshirish bo'yicha memorandum imzolandi. Yaponiyaning JICA Agentligi va uning tarmoq korxonasi bo'lgan JICS mutaxassislari bilan O'quv media markazining kontseptsiyasi, unda o'rin oladigan o'quv laboratoriyalari, ularning joylashgan joyi, xarid qilinadigan texnik vositalar va jihozlar, ularning hususiyatlari bo'yicha muzokaralar boshlandi. O'quv media markazining yuqori darajada va samarali faoliyat yuritishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan ishlar belgilab olindi.

2018 yilda JICA Agentligi nazoratida Yaponiyada tender jarayoni bo'lib o'tdi. Tenderda g'olib bo'lgan firma tomonidan taqdim etilgan texnik vositalar ro'yxati yanabir bor TATU mutaxassislari tomonidan ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. Shu yildan boshlab TATU hududida joylashgan eski kichik sport zalini O'quv media markazi uchun ajratildi hamda bu yerda rekonstruktsiya ishlari boshlab yuborildi.

2019 yildan boshlab esa Yaponiyadan texnik uskuna va jihozlar keltirila boshlandi. Shu yilning iyun oyiga kelib barcha qurilish montaj ishlari, uskunalarni o'rnatish ishlari o'z yakuniga yetkazildi. Media o'quv markazida texnik qurilmalarni yetkazish va o'rnatish ishlari Yaponiyaning Marubeni kompaniyasi tomonidan amalga oshirildi.

2019 yilning 29 oktyabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida O'zbekiston Respublikasi hamda Yaponiya hukumatlari o'rtasidagi kelishuvga muvofiq mamlakatimizdagi OTMLar orasida yagona bo'lgan o'quv media-markazining tantanali ochilish tadbiri bo'lib o'tdi. O'quv media markazining ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Shuhrat Sodiqov, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligining (JICA) vitse-prezidenti janob Kazuxiko Kashikava, TATU rektori To'lqin Teshaboev, Yaponiya elchisi janob Fujiyama Yoshinori, universitet professor-o'qituvchilari, OAV vakillari hamda talabalar ishtirok etishdi.

Ochilish marosimidan so'ng tadbir ishtirokchilari va mehmonlarga media-markazning barcha imkoniyatlari, eng ilg'or texnologiyalar, uning faoliyati to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi. Shuni alohida qayd etish lozimki, o'quv media markazidan xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, ta'lim tizimida eng so'nggi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, talabalarga nafaqat nazariy bilimlar berish, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda foydalaniladi. Bu orqali esa zamonaviy media makoniga yuqori tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni yetkazib berish maqsad qilingan.

Loyiha doirasida universitet O'quv media markaziga televizion dasturlarni tasvirga olish tizimi, televizion yoritkich qurilmalari, virtual studiya, TV yangiliklarni tasvirga olish qurilmalari, videomontaj tizimlari, raqamli fotostudiya, audio yozish tizimi, media pavilyonni boshqarish qurilmalari o'rnatilgan.

## **O'quv media markazining o'quv laboratoriyalari haqida ma'lumot**

### **1. Kichik pavilion**

### **2. Ovoz yozish studiyasi**

### **3.Virtual studiya**

### **4. Montaj xonasi**

### **5. Grim xonasi**

### **6. Katta pavilion**

### **7. Namoiish xonasi**

### **8. Fotostudiya**

## **9. Boshqaruv pulti xonasi**

**O'quv media markazining ochilish marosimidan fotolavhalar**